

HUQUQBUZARLIK LARNI FOSH ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Umarxo'jayev Asadbek Shuhratjon o'g'li

*IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi 209-guruh kursanti
Ilmiy rahbar – Maxamadov Rustam Xabibullayevich*

*IIV Akademiyasi Axborot texnologiyalari
kafedrasи o'qituvchisi*



Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы внедрения единого интерактивного портала, обеспечивающего удобство в системе управления органами внутренних дел с использованием современных информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: информация, связь, цифровые технологии, проект, цифровизация.

Abstract: This article examines the processes of introducing a single interactive portal that provides convenience in the management system for internal affairs bodies using modern information and communication technologies.

Key words: information, communication, digital technology, project, digitization.

Anotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ichki ishlар organlari uchun boshqaruv tizimida qulaylik yaratuvchi yagona interaktiv portal joriy qilish jarayonlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: axborot, kommunikatsiya, raqamlı texnologiya, loyiha, raqamlashtirish.

Axborot texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi bir vaqtning o'zida ko'p turdag'i jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratdi, o'z navbatida ushbu turdag'i jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olishda yuqori bilim va kasbiy tayyorgarlikni talab qilmoqda. Global taraqqiyot sharoitida axborot texnologiyalari mohiyatini oshirishning yanada zamonaviy, innovatsion usullarini izlab topish, axborotlashtirish jarayoniga har tomonlama ko'maklashish, ularni hayotga keng joriy etish davlat faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zero, axborotlashtirish tizimida davlat siyosatini olib borish masalasi strategik ahamiyatga ega vazifadir.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va kishilik jamiyatining barcha sohalarida internetdan keng foydalanish kundalik faoliyatning bir qismini tashkil etib, xizmat ko'rsatish, ilm-fan, ta'lim, elektron tijorat, shuningdek zamonaviy insonning fikrlesh tarziga o'zining ijobiy ta'siri bilan kirib keldi. Hayot

sifatini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan ushbu o'zgarishlar bilan bir qatorda, jinoyatchilikning yangi shakllarini rivojlantirishga qulay sharoitlar paydo bo'lganligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoniga asosan Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatiga uning samaradorligini oshirish va ortiqcha xizmat yuklamasini qisqartirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalari tatbiq etiladi.

Xususan:

- "E-inspektor" elektron kompleks tizimini tatbiq etish orqali huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalarida ish yurituvni maqbullashtiriladi;
- profilaktik hisobdag'i shaxslar bilan ishlash bo'yicha elektron axborot tizimini ishlab chiqiladi;
- ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha "E-mamuriy ish" yagona elektron hujjat almashinushi tizimini yaratiladi;
- mahallalarda jinoyatlarni muhokama qilish jarayonlarini masofadan turib nazorat qilish bo'yicha elektron modul tatbiq etiladi;
- "E-hisobot" axborot tizimini yaratish orqali profilaktika xizmatida hisobotlarni unifikatsiya qilinadi va uni boshqa tashkilotlarning hisobot yuritiladi, idoraviy axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiya qilinadi.

Ta'kidlanganidek, Senatning 2022-yil 19-martdagi tegishli qaroriga muvofiq ko'rilgan choralar natijasida o'z faoliyati davomida jinoyatlarni jilovlash borasida axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishda ishlarni to'g'ri tashkil etmagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari qo'llanilgan. Qayd etilishicha, huquqbazarlilar profilaktikasiga axborot texnologiyalarini joriy etilishi natijasida joriy yilda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 93,9 foizi fosh etilgan. Qidiruvdagi 2 841 nafar shaxs ushlanib, bedarak yo'qolgan 203 nafar shaxs topilgan.

2021-yil davomida ochilmay qolib ketgan jinoyatlarning 1 079 tasi, avvalgi yillarda ochilmagan jinoyatlarning 151 tasi fosh etilishi ta'minlangan.

Mahallalarda jinoyatchilikni oldini olishda salmoqli ishlar amalga oshirilgan. joriy yilning birinchi yarmida jami mahallalarning 53 foizida jinoyat sodir etilmagan va 14 foizida jinoyatlar kamayishiga erishilgan. Jinoyatlar ko'paygan 33 foiz mahalla "qizil" toifaga kiritilib, qo'shma patrullik yo'nalishlari tashkil etilgan. Erishilgan natjalarga ko'ra huquqbazarliklar profilaktikasida axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ichki ishlar organlari faoliyatida muayyan kamchiliklar, yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf qilish imkoniyatlari yaratildi. Xususan, shu yilning 11 oyida ro'yxatga olingan jami jinoyatlarning salmog'i Toshkent shahrida, Farg'onada, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida yuqoriligidcha qolayotganligiga e'tibor qaratildi. Shu sababdan aynan shu hududlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishni tezlashtirish va butun hudud va jinoyatchilikni raqamlashtirishni keng joriy etish belgilab berildi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan mahalla hududlarida sodir etiladigan jinoyatlarni bartaraf etishda ishlar sust olib borilyapti. Shu bois, axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish orqali oldini olish mumkin bo‘lgan ayrim turdagи jinoyatlar ko‘payishiga to‘sinqlik qilinmoqda. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning soni ayrim hududlarda yuqoriligidcha qolgan. Yuqoridagi misollarni inobatga olgan holda, Internet foydalanuvchilari uchun ularga nisbatan sodir etilishi mumkin bo‘lgan noqonuniy huquqbuzarliklarni oldini-olish bo‘yicha ba’zi tavsiyalarni berish mumkin:

- internetga kirish, zararli faoliyatga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy ta'minotga ega qurilmalardan foydalaning, ularni o‘z vaqtida yangilab turing;
- xavfsizlikka javob beradigan yangilanishlar o‘rnatilgan, boshqa dasturiy ta'minotning joriy versiyalariga ega bo‘lgan operatsion tizimdan foydalaning;
- saytlardan foydalanganda ularning tashqi ko‘rinishiga, veb-manziliga e’tibor bering: ehtimol Siz uning soxta nusxasiga kirdirsiz;
- shaxsiy ma'lumotlarni faqat xavfsiz protokollardan foydalanadigan veb-saytlarga kriting (odatda brauzerda bunday sayt manzili yonida yashil fonda blokirovka belgisi ko‘rsatiladi);
- turli xil saytlarda bir xil login va parollardan foydalanmang;
- juda engil yoki osongina taxmin qilinadigan parollardan foydalanmang (tug'ilgan sana, telefon raqamlari va hokazo);
- imkon qadar, foydalanuvchi nomi va parolni kiritishdan tashqari, vaqtinchalik kodni kiritishni talab etuvchi, ikki martalik autentifikatsiyadan foydalaning, odatda SMS-xabar yoki “PUSH” xabarnomasi shaklida mobil` telefoningizga yuboriladi;
- kutilmagan yoki g‘ayrioddiy tasodifiy kelgan elektron pochta xabarlaridan ehtiyyot bo‘ling, hatto jo‘natuvchini bilsangiz ham, hech qachon ichidagi qo‘sishchalarini ochmang yoki bunday elektron pochta manzilidagi havolalardan foydalanmang;
- hisob ma'lumotlarini talab qiladigan elektron pochta xabarlaridan ehtiyyot bo‘ling (moliya muassasalari deyarli hech qachon elektron pochta orqali moliyaviy ma'lumotni so‘ramaydilar), hech qachon himoyalanmagan Internet kanallari orqali moliyaviy ma'lumotlarni yubormang;
- do‘stlariningizdan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki moliyaviy ma'lumotlarni uzatishni rag'batlaniruvchi xabarlarni olganingizda, ushbu ma'lumotni boshqa aloqa kanallari (shaxsiy uchrashuv, telefon qo‘ng‘irog‘i, ovozli xabar yo‘llash imkoniga ega messenjer) yordamida tekshiring yoki o‘ta og‘ir holatlarda javoblarini uchinchи shaxslar bilishi mumkin bo‘lmagan nazorat savollarini berish orqali suhbатdoshingizning shaxsiga aniqlik kriting;

- Internet orqali to‘lovlarni amalga oshirishda, iloji bo‘lsa, “Visa” va “MasterCard” xalqaro to‘lov tizimlari uchun “3D Secure” kabi to‘lovlarning qo‘sishma xavfsizligini ta‘minlash texnologiyalaridan foydalaning;

- o‘zlarini bank xodimi deb tanishtirgan va bank kartangiz ma'lumotlarini berishingizni so‘ragan notanish odamlar bilan hech qachon telefonda gaplashmang;

- bank kartangiz ma'lumotlarini xavfsiz joyda saqlang, ularni hech kimga - qayd etish yozuvlaringizning saqlanib qolishi uchun do‘srlaringiz va yaqinlaringiz doirasini cheklang. Shaxsiy ma'lumotlaringizni hech qachon yangi onlayn do‘srlar bilan baham ko‘rmang. Tug'ilgan sana, elektron pochta manzillari yoki parol` sifatida ishlatalishi mumkin bo‘lgan uy hayvonlari ismlari haqidagi ma'lumotlarni ommalashtirishdan saqlaning. Ushbu ma'lumotlarning barchasi professional xaker uchun juda foydali bo‘lishi mumkin;

- “Diqqat! Sizning akkauntingiz buzib tashlandi. Akkauntingizni tasdiqlash uchun qo‘ng’iroq qilishingiz kerak. Bizga xabar yuboring, biz sizni qayta chaqiramiz” kabi xabarlardan ehtiyoj bo‘ling;

- “Click jacking” qurbaniga aylanmang. Bu shunday turdagi kiberhujumki, birinchi qarashda ular zararsiz kontentga o‘xshab ko‘rinadigan giperhavolalarni o‘zida saqlaydi. Biroq giperhavolani bosish zararli dastur uchun yo‘l ochadi, bu sizning komp`yuteringizga tajovuz qilishi yoki sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni chetga uzatishi mumkin;

- elektron pochta manzillarida va veb-saytda, agar siz ular bilan ish olib boradigan obro‘li moliyaviy muassasalarning nomlarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa ham URL manzillarini diqqat bilan ko‘rib chiqing. eng keng tarqalgan hiyla - bu qonuniy veb-sayt nomi va soxta narsalarning kombinatsiyasi. Ushbu manzillar ko‘pincha qonuniy ko‘rinishda xakerlik faoliyati bilan bog‘liqligini yashiradigan nusxa ko‘chiradigan saytlarga olib keladi. Ba’zida URL qonuniy bo‘lishi mumkin, ammo havolani bosgанингизда, у Sizni boshqa saytga olib boradi.

Ichki ishlar organlarini xususan, huquqbazarliklar profilaktikasini axborot texnologiyari bilan taminlash orqali uzoq vaqtlar mobaynida ochilmay kelayotgan jinoyatlar, turli xil turdagи jinoyat sodir etib, huquqni muhofaza qilish organlaridan yashirinib yurgan qidiruvdagi shaxslarni aniqlash, fuqarolarning murojaatlarini tez fursarlarda hal etishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ichki ishlar organlarida axborot texnologiyalarini joriy etish to‘g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи PF 6196-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 19-iyundagi huquqbazarliklar va jinoyatlarning darajasi bo‘yicha hisobot-taxlili